
Farg'ona viloyati haqida Yaponiya ommaviy axborot vositalari

2018 yil 28-29 aprel kunlari Yaponiyaning «Sankei Shimbun», «Tokyo Shimbun», «The Sekai Nippo» va «Sunday Sekai Nippo» gazetalari, «Hokkaido Broadcasting» telekompaniyasi kabi yetakchi ommaviy axborot vositalari vakillari va sayyohlik kompaniyalari Farg'ona viloyatiga tashrif buyurishdi. Tashrifning asosiy maqsadi – hududning asosiy sayyohlik yo'nalishlarini o'rganish orqali viloyatning turizm salohiyatini Yaponiyada targ'ib qilish bo`ldi.

Ijodiy guruh Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Jome` masjidi, Norbutabiy madrassasi kabi diqqatga sazovor joylarini tasvirga olishdi. Yaponlar qabristoni ham e'tibordan chetda qolmadi. Mehmonlar ushbu joyni ziyorat qilishdi.

OAV vakillari Rishton tumanidagi mashhur kulol A. Nazirov faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Rishton-Yaponiya Markazi talabalari yorqin chiqish bilan yapon tilidagi ko'nikmalarini ko'rsatib o'tishdi. Marg'ilon shahrida "Yodgorlik" ipakchilik fabrikasi hamda Said Ahmadxo'ja madrassasi – hunarmandlar markazining ipakli matolarni ishlab chiqarish jarayonini tasvirga olishdi. Quva shahridagi alloma Ahmad al-Farg'oniy nomli majmuaga ham tashrif buyurishdi.

Tashkil etilgan infotur, albatta, kelajakda ijobiy natijalarini topib, Farg'ona viloyatining kirish turizmi rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yaponiya ommaviy axborot vositalarida viloyat sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish orqali hududning turistik oqimini ko'payishi va Yaponiya tomonidan turizm yonalishlariga qiziqishni oshirishi kutilmoqda.

Kamila Mo'minova

2018-05-04 09:29:43